

## TA'LIM XIZMATLARIDA MARKETING BOSHQARUVI

**Boyqulova Gulira'no**

Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Maktab menejmenti yo'nalishi talabasi.

### ANOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida davlat va nodavlat ta'lismizlari rivojlanishida yuzaga kelayotgan kamchiliklar va muammolar, ularni bartaraf etishga qaratilgan izlanishlar yoritilgan. Mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan davlat va nodavlat ta'lismizlarning aholiga xizmati darajasini takomillashtirishda ya'ni jahon standartlariga moslashtirishda butun jahonda ayniqsa rivojlangan mamlakatlarning ta'lismizlarning marketing faoliyatini o'rganish natijasiga tayanib yechimlar va xulosalar bayon etildi. Ushbu yo'nalishga oid izlanishlar, ilmiy ishlar muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** marketing, marketing strategiyasi, raqobatbardoshlik, ta'lismiz tizimi, ta'lismiz sifati, ta'lismizlari bozori, xizmatlar sohasini rivojlantirish, xalqaro a'lloqlar.

### ABSTRACT

In this article, today in the Republic of Uzbekistan, the state and no shortcomings arising in the development of state education services and problems, research aimed at their elimination are covered. In the country service to the population of operating state and non-state educational centers in improving the level, i.e. in adapting it to world standards marketing in the field of education of especially developed countries in the world solutions and conclusions were presented based on the results of studying the activity. This researches and scientific works related to the direction were discussed.

**Keywords:** marketing, marketing strategy, competitiveness, education system, quality of education, the market of educational services, development of the service sector, international relations.

### KIRISH

Ta'lismiz muassalarida, o'z xizmatlari darajasini yaxshilash uni jahon standartlariga moslashtirish asosiy maqsad va vazifalardan biri hisoblanadi. Ma'lumotlarga qaraganda bugungi kunga Surxondaryo viloyatida 6 ta oliy ta'lismiz muassassasi , 20 ta o'rta maxsus , kasb – hunar ta'lismiz muassassalari , 300 dan ortiq davlat va nodavlat o'rta ta'lismiz maktablari (sport va ixtisoslashgan maktablар shular jumlasidan) , 1000 ga

yaqin o‘quv markazlari faoliyat yuritmoqda. Eslatib o‘tish joizki , 2017-2021 yillarda O‘zbekiston prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan , O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishiga asoslangan harakatlar startegiyasida “uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliv ta’lim muassassalari faoliyatining sifatini hamda samaradorligini oshirish”[1] ka’bi yoshlar va ayniqsa talabalar uchun ustuvor vazifalar belgilab o‘tilgan. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini takomillashtirish davlat siyosati darajasida qaraladi. Bunga misol tariqasida ta’lim to‘g‘risidagi qonun va bir nechta ta’limga aloqador qarorlarning qabul qilinishini ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin

### **ASOSIY QISM**

Ta’lim tizimi sifati va xizmatlarini takomillashtirishtishi uning marketing strategiyasini yaxshilanishiga turki bo‘ladi. Marekting – bu bozor ya’ni ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi va iste’molchi ya’ni xaridor o‘rtasida Tovar va xizmatlarni ayirboshlash , sotish kabi jarayonlarning o‘z ichiga oluvchi faoliyatdir. Shuni eslatib o‘tish joizki , marketinga aloqador kitoblar va maqolalarda, marketingga ikki mingdan ortiq ta’rif keltirib o‘tilgan. Shu o‘rinda eslatib o‘tish joizki K. M. Almakuchukov , G, Axunova , N. Aliyev, D.Nazarova kabi olimlar va mustaqil izlanuvchilar marketing boshqaruvi va uni takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan va qoniqarli natijalarga erishishgan. Shu o‘rinda G. Sa’dullayeva o‘z ilmiy izlanishlarida ta’lim xizmatlarida marketing strategiyasini o‘rni va bu strategiyada raqbat muhitining o‘rniga haqida chuqur ma’lumotlar keltirib o‘tgan. Ta’lim xizmatlarida marketing o‘rniga asoslangan ilmiy ishlarida marketingni rivojlantirishda marketing mixni takomillashtirish, shu o‘rinda o‘zbekiston respublikasida ta’lim xizmatlari merketingining kechasi va buguniga ta’rif berib o‘tganlar. Va kelajagi uchun izlanilgan xulosa va takliflar keltirganlar . Dunyo miqyosida ta’lim xizmatlariga nisbatan o‘ziga hos qarashlar va ta’riflar mavjud. Misol ta’riqasida YUNESKO tashkil etilganining 75 yilligiga bagishlangan ko‘rgazmada aynan ta’lim sohasiga alohida to‘xtalgan, ta’limga oid quyidagi ta’riflar keltirib o‘tilgan. Ta’lim olish bu shaxsning qobiliyati xulq-atvorining takomillashishi jarayoni va natijasidir, ta’lim olish orqali u individual o‘sadi va ijtimoiy yetuklikka erishadi [3]. Eslatib o‘tishimiz joizki YUNESKO har bitta konferensiyalarda ta’limga ayniqsa rivojlanish darasi ancha orqada bo‘lgan mamlakatlar aholisi ta’limiga va ayniqsa ayollar ta’limiga alohida to‘xtalib o‘tadi. Bundan tashqari T.I.Avdeeva , A.D.Kuliklar Zamoniyy jamiyatda oliy ta’lim o‘rniga o‘ziga hos qarasgni keltirib o‘tgan unga ko‘ra ta’lim xizmati davlatning ajralmas iqtisoiy bo‘lagidir, shu sababli davlat har bir yoshda yoki ish jarayonida shaxslardan ma’lum bir ilmiy darajani talab qiladi [4]. Bu ham iqtisodchilar qarashlaridan bir lavha, bu o‘z navbatida shuni anglatadiki, aholi bolaligidan jamiyatda o‘z o‘rnini topish uchun

ham ta'limga muhtojdir. O'zining ijtimoiyiqtisodiy mohiyatiga ko'ra ta'lim davlat tovari bo'lib, fan, madaniyat va sog'liqni saqlash bilan bir qatorda xalq xo'jaligining aralash sektoriga kiradi. Bundan tashqari ta'lim va ta'lim zimatlari va ta'lim xizmatlarini takomillashtirishda marketingni o'rniga asoslangan ilmiy izlanishlar sifatida quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin, Natalya Kallenskaya , Ilshad Gafurov va Aida Novenkovalar birgalikda "Marketing of Educational Services: Research on Service Providers Satisfaction" nomli ilmiy ish qilishgan. Magdalena Platis va Leonora Gabriella Baban. Steven P.SChnaars . Ken Franzen 2018 yilda "Ta'lim sektorlari uchun muvaffaqiyatli marketingning beshta kaliti " nomli maqola nashr etgan. Pankruxin. A.P "Маркетинг образовательных услуг в высшем и дополнительном образовании". Porter M.E "Competitive strategy" nomli kitobi orqali raqobat muhiti, raqobatchilar va raqobatlashish haqida chuqur va sinalgan ma'lumotlar olish mumkin. Ta'lim xizmati jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi: mamlakat mehnat resurslaridan foydalanishning umumiy samaradorligini oshirishga, ularning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbektonda faoliyat yuritayotgan barcha ta'lim muassassalarida o'z faoliyatlari jarayonlarida albatta marketing faoliyatini va o'zlari taklif etayotgan ta'lim xizmati sifatini jahon darajasida standartlatish ustida ishlar olib borilmoqda. Surxondaryo viloyatida ta'lim muassassalari faoliyati xizmatlarini takomillashtirish va jahonga standartlariga moslashtirishga qaratilgan chora tadvirlarga bir nechta qo'shimcha takliflar kiritishimiz mumkin.

- Aholi o'rtasida ta'lim sifatiga nisbatan fikrlarini va takliflarini bilish maqsadida kuzatishlar va so'rovnomalar olib borish, ko'rsatilgan muammolarga yechim topish
- Viloyatda tashkil etilgan ta'lim muassalari faoliyatida bir nechta yangi yo'nalishlarni tashkillashtirish, masalan IT ga ixtisoslashgan y'onalishlarni ochish, mavjudlarini esa takomillashtirish;

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'RQ-637-сон 23.09.2020. Ta'lim to'g'risida. (2022). Retrieved 24 March 2022, from <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. Выставка «ЮНЕСКО: образование для всех». (2022). Retrieved 24 March 2022, from <https://www.rsl.ru/ru/events/afisha/vistavki/yunesko-obrazovanie-dlyavsex>
3. <https://ilm ziyo.com/uz/asar/2182>
4. <https://ta'lim innovatsiya.com/ru/asar/2182>